



TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASH VA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7540467>

ARTICLE INFO

Received: 06th January 2023

Accepted: 14th January 2023

Online: 16th January 2023

KEY WORDS

Dunyoqarash, tafakkur, fikr,
axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari, pedagogik
texnologiya, tarbiya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni, yangicha fikrlash qobiliyatini kengaytirishning ta'lim tarbiya jarayonida qanchalik muhim o'rin tutishi va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga qay tazda erishish mumkinligi to'g'risida ma'lumot berib o'tiladi. Shuningdek, dunyoqarashni shakllantirish hamda fikrlash qobiliyati, ya'ni tafakkurni kengaytirish borasida buyuk allomalarning fikr va tajribalari keltirilib o'tiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashini o'stirish barcha zamonlarda har bir millatning muhim vazifasi sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin tutgan. Bu boradagi muammolar va ularga yechimlar mazkur maqoladan joy olgan.

KIRISH. Insonni tarbiyalash, unga bilim berish har qanday davrda ham asosiy masala bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, komil shaxs etib tarbiyalash yo'llarini izlaganlar. Hozirgi davrning asosiy talabi – mustahkam va chuqur bilim, kuchli iroda, g'oyaviy immunitetga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash va ularning dunyoqarashini shakllantirish. Ayni damda talabalar ongida yangicha dunyoqarashni tarkib toptirish, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohalarida sog'lom fikr yuritishga erishish shu kunning dolzarb muammolaridandir. Zero, bugungi yosh pedagoglar kelajakda mustaqil fikrga ega, keng dunyoqarashli, zamon talablariga to'laqonli javob beradigan o'quvchilarni tarbiyalashi lozim. Buning uchun pedagoglarning o'zi ko'p qirrali qobiliyatlarga, keng dunyoqarashga va eng asosiysi, sog'lom fikrga ega bo'lishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Aslida ta'lim-tarbiya sohasida islohotning chegarasi yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rta qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra mustaqil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi".[1]

Ta'lim tizimiga yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini olib kirish bugungi kunning muhim masalalari sirasiga kiradi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali bir qancha qulayliklar yaratiladi. Shu narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, ayni paytda axborot ilish ko'lami har qachongidan ham kengroq bo'lib, yetarli darajada ortib bormoqda. Demak, yurtimizda fan-texnika rivojlangani sari axborot olish imkoniyati ham oshib boradi. O'quvchilarga



ma'lumotlarni talab doirasida yetkazib berishda fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanish zarur. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda yangi axborot texnologiyalaridan o'z vaqtida va unumli foydalanishning istiqbolli tomonlari ko'zga tashlanmoqda. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Ammo ta'lim jarayonida an'anaviy tizimdan voz kechmaslik, zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaslik, darslarni ijodkorlik bilan uyushtirmaslik kabi holatlar ham ko'zga tashlanadiki, oqibatda, o'quvchilar faol subyektga emas, balki sust obyektga aylanib qolmoqda. Buning natijisida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, dunyoqarashning boyib borishi, mavzularni to'liq idrok etish imkoniyati cheklanib qolmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inlarida olib borilayotgan tub islohotlar, asosan, yuqori malakali, zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga bo'lgan talabni, ehtiyojni qondirishga qaratilgan.

ASOSIY QISM. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, milliy-madaniy qadriyatlarni o'rgatish yoshlarning har tomonlama erkin fikrlashiga, ijodiy yondashuviga, dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishiga sharoit yaratadi. Har bir insonning dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi.

Dunyoqarash – insonning tevarak-atrofni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olam haqidagi turli qarashlar majmui, shaxsning barcha bilimlar tizimi. Shu ma'noda dunyoqarash turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, individual dunyoqarash, ijtimoiy dunyoqarash, milliy dunyoqarash, umummadaniy dunyoqarash.[2]

Ta'lim jarayonining bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga va dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishdir. Chunki mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsgina yangiliklar yarata oladi va jamiyat uchun foyda keltiradi. Dunyoqarashi keng bo'lgan inson har qanday vaziyatda ham muammoga duch keladigan bo'lsa, aql bilan ish ko'rish hamda muammoga yechim topish imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish ham pedagoglar zimmasidagi o'ta mas'uliyatli vazifa hisoblanadi.

"Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir(orzu) qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan o'ylamaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabi dur.[3]

O'quvchilarning dunyoqarashini o'stirish uchun darslarni zamonaviy axborot texnologiyalari hamda pedagogik texnologiyalarga tayangan holda tashkil etish lozim. Yana rang-barang ko'rgazmali materiallar hamda badiiy adabiyot vositalari ham bola dunyoqarashini o'stiruvchi omillardan sanaladi.

Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'lga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik. Hozirgi zamon o'quv muassasalarining asosiy vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Mustaqil fikrlashni o'rgatish oila, bog'cha, maktab, akademik-itsey va kasb-hunar kollejlaridagi ta'lim-tarbiya beruvchi shaxslarning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.



Ayniqsa, bu maktab o'qituvchilaridan katta mehnatni talab etadi. Shu sababdan har bir pedagog o'z ustida tinmay izlanishi va mahoratni ishga solishi kerak.

Shuningdek, "Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvshi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir".[4]

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har qanday vaziyatda ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yetarli darajada e'tibor beriladi. Ta'limning sifatini esa keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlarini to'liq bayon qila oladigan o'quvchilar tashkil etadi. Bunday o'quvchilarni yetishtirish esa pedagoglarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mavzuga doir ma'lumotni yodlash orqali emas, tishunish, anglash orqali esida saqlab qolgan o'quvchilar ta'limning kelajagi hisoblanadi.

References:

1. I. A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
2. A. Musurmanova, X. Ibragimov, O. Jamoliddinova, K. Risqulova, S. Yo'ldosheva, A. Jumayev, F. Babashev, P. Isamova, S. Sharipova, G'. Salohiddinova, K. Tadjibayeva. Umumiy pedagogika. – Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2020.
3. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
4. R. A. Mavlonova, N. H. Rahmonqulova, K. O. Matnazarova, M. K. Shirinov, S. Hafizov. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018